“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=377

2026-yil
7-son
iyul
ISSN 3093-8546



O‘zbekistonda islom moliyasining huquqiy tartibga solinishi: amaldagi holat, huquqiy bo‘shliqlar va islohot istiqbollari

Abdilaziz Abdirasulov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o‘qituvchisi
e-mail: Abdirasulovabdilaziz77@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada O‘zbekistonda islom moliyasining huquqiy tartibga solinishi tahlil qilinadi. Xususan, 2026-yil 27-martda imzolangan va mamlakatda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qonun, Markaziy bankning islomiy mikromoliyaviy xizmatlarga oid me’yoriy hujjatlari hamda ularga qadar mavjud bo‘lgan huquqiy to‘siqlar tanqidiy o‘rganiladi. Maqolada islom moliyasining asosiy instrumentlari (murobaha, mudoraba, mushoraka, ijara, salam, istisna’) va ularning O‘zbekiston fuqarolik hamda soliq qonunchiligi bilan muvofiqligi masalalari yoritiladi. Shuningdek, hozirgi tartibga solishdagi bo‘shliqlar–sukuk va takoful institutlarining tartibga solinmaganligi, shariat boshqaruvi mexanizmlarining shakllanmaganligi, malakali kadrlar taqchilligi hamda nizolarni hal etish bilan bog‘liq muammolar tahlil etilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy islohot takliflari ilgari suriladi.

Калит сўзлар. islom moliyasi, islomiy bank faoliyati, shariat standartlari, murobaha, mudoraba, mushoraka, sukuk, takoful, litsenziyalash, soliq rejimi, huquqiy islohot, O‘zbekiston.

Аннотация. В данной статье анализируется правовое регулирование исламских финансов в Узбекистане. В частности, критически рассматриваются закон, подписанный 27 марта 2026 года и направленный на внедрение исламской банковской деятельности в стране, нормативные акты Центрального банка об исламских микрофинансовых услугах, а также правовые барьеры, существовавшие до их принятия. В статье освещаются основные инструменты исламских финансов (мурабаха, мудараба, мушарака, иджара, салам, истисна) и вопросы их соответствия гражданскому и налоговому законодательству Узбекистана. Также анализируются пробелы в действующем регулировании – отсутствие правовой базы для сукук и такафул, несформированность механизмов шариатского управления, дефицит квалифицированных кадров и проблемы разрешения споров,–и выдвигаются предложения по правовым реформам, направленным на их устранение.

Ключевые слова. исламские финансы, исламская банковская деятельность, шариатские стандарты, мурабаха, мудараба, мушарака,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

сукук, такафул, лицензирование, налоговый режим, правовая реформа, Узбекистан.

Annotation. This article analyzes the legal regulation of Islamic finance in Uzbekistan. In particular, it critically examines the law signed on March 27, 2026, aimed at introducing Islamic banking in the country, the Central Bank's regulations on Islamic microfinance services, and the legal barriers that existed prior to their adoption. The article covers the main instruments of Islamic finance (murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, salam, istisna) and issues of their compatibility with Uzbekistan's civil and tax legislation. It also analyzes the gaps in the current regulatory framework–the absence of a legal basis for sukuk and takaful, the underdeveloped mechanisms of Shariah governance, the shortage of qualified personnel, and dispute resolution challenges–and puts forward proposals for legal reforms aimed at addressing them.

Keywords. islamic finance, islamic banking, shariah standards, murabaha, mudaraba, musharaka, sukuk, takaful, licensing, tax regime, legal reform, Uzbekistan.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda islom moliyasi jahon moliya tizimining eng jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. Foizga (riboga) asoslanmagan, tavakkalchilikni taqsimlash, real aktivlar bilan bog‘liqlik hamda haddan tashqari noaniqlik (g‘arar) va chayqovchilikni taqiqlash tamoyillariga tayanuvchi ushbu tizim bugungi kunda nafaqat musulmon davlatlarida, balki Buyuk Britaniya, Lyuksemburg va Singapur kabi yetakchi moliya markazlarida ham keng qo‘llanilmoqda[1]. Islom moliyasining jahon aktivlari trillionlab AQSh dollari bilan o‘lchanayotgan bir sharoitda, aholisining mutlaq ko‘pchiligi musulmon bo‘lgan O‘zbekiston uchun ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekistonda islom moliyasiga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (BMTTD) o‘tkazgan so‘rov natijalariga ko‘ra, aholining 68 foizi va tadbirkorlik subyektlarining 60 foizi diniy e’tiqodi sababli an’anaviy foizli bank xizmatlaridan foydalanishdan o‘zini tiyadi[2]. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, mamlakatda islomiy moliya mahsulotlariga bo‘lgan yashirin talab kamida 10–15 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, Yevroosiyo taraqqiyot banki prognozlariga ko‘ra esa islomiy bank aktivlari 2033-yilga borib 2,3 milliard dollarga yetishi mumkin[3]. Bu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, islom moliyasining huquqiy asoslarini yaratish nafaqat moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, balki norasmiy iqtisodiyotdagi jamg‘armalarni rasmiy moliya tizimiga jalb etish va xorijiy, xususan, Fors ko‘rfazi davlatlari sarmoyalarini jalb qilish nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, yaqin vaqtgacha O‘zbekiston qonunchiligi islom moliyasi institutlarining to‘laqonli faoliyat yuritishiga imkon bermas edi. Amaldagi bank qonunchiligi banklarning savdo faoliyati bilan shug‘ullanishini, yuridik shaxslar tashkil etishini va ularning ustav kapitalida ulush olishini taqiqlagani bois savdoga hamda sheriklikka asoslangan islomiy moliyalashtirish modellari huquqiy jihatdan amalga oshirilmas edi. Soliq kodeksi esa islomiy moliya

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

operatsiyalarini oddiy tijorat bitimlari sifatida baholab, ularni qo‘shilgan qiymat solig‘i va aylanma solig‘iga tortar, natijada islomiy mahsulotlar an’anaviy bank xizmatlariga nisbatan sun’iy ravishda qimmatlashib ketardi[4]. 2026-yil 27-martda Prezident tomonidan imzolangan, islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qonun ushbu tizimli to‘siqlarni bartaraf etish yo‘lidagi tarixiy qadam bo‘ldi. Biroq mazkur qonunning qabul qilinishi islom moliyasini tartibga solish borasidagi barcha masalalarni hal etdi, degani emas. Ushbu maqolada amaldagi huquqiy baza tahlil qilinadi, mavjud bo‘shliqlar aniqlanadi hamda sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan islohot takliflari asoslab beriladi.

O‘zbekistonda islom moliyasining amaldagi huquqiy tartibga solinishi

O‘zbekistonda islom moliyasining huquqiy asoslari bosqichma-bosqich, evolyutsion yo‘l bilan shakllanib bordi. Dastlabki bosqichda islomiy moliyalashtirish faqat xalqaro moliya institutlari orqali, amaldagi qonunchilik doirasida cheklangan shaklda amalga oshirildi. Xususan, Islom taraqqiyot banki guruhiga kiruvchi Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi (ICD) kredit liniyalari orqali mamlakatning o‘ndan ortiq tijorat banki murobaha ko‘rinishidagi mahsulotlarni taklif etib keldi. 2021-yilda esa mamlakatda shariat talablariga to‘liq mos keluvchi ilk lizing kompaniyasi – “Taiba Leasing” tashkil etilib, ijara shartnomasi asosida kichik va o‘rta biznes subyektlarini moliyalashtirishni yo‘lga qo‘ydi[5]. Biroq ushbu amaliyotlar maxsus huquqiy rejimga emas, balki mavjud fuqarolik-huquqiy konstruksiyalarga moslashtirilgan bo‘lib, tizimli rivojlanish uchun yetarli emas edi.

Ikkinchi bosqich mikromoliya sektorida maxsus tartibga solishning joriy etilishi bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil 27-iyuldagi 3536-son qarori bilan “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi[6]. Mazkur hujjatga muvofiq, mikromoliya tashkilotlari mijozlarni salam, mudoraba, mushoraka, murobaha, istisna’ va ijara kabi mahsulotlar orqali moliyalashtirish huquqiga ega bo‘ldi. Ushbu nizom islomiy moliya instrumentlarining milliy huquqiy tizimda ilk bor rasman e’tirof etilishi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, uning qamrovi faqat mikromoliya sektori bilan chegaralanib, bank sektorini o‘z ichiga olmas edi.

Uchinchi va hal qiluvchi bosqich islomiy bank faoliyatiga oid maxsus qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. 2025-yilning sentabrida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan birinchi o‘qishda ma’qullangan qonun loyihasi Senat tomonidan tasdiqlangach, 2026-yil 27-martda Prezident tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun imzolandi[7]. Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi va u bilan Soliq kodeksi, Fuqarolik kodeksi hamda yana yettita qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur qonunning asosiy yangiliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, milliy qonunchilikka “islomiy bank”, “islomiy moliya operatsiyalari”, “islomiy moliya standartlari” va “investitsiya depoziti” kabi tushunchalar kiritildi hamda islomiy bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olish talablari belgilandi. Litsenziyalash tizimi ham to‘laqonli islomiy banklar tashkil etish, ham an’anaviy banklar tarkibida islomiy “darcha”lar ochish imkonini beradi. Ikkinchidan, islomiy bank litsenziyasiga ega kredit tashkilotlariga islomiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

moliya standartlariga muvofiq savdoga asoslangan moliyalashtirishni amalga oshirish, yuridik shaxslar tashkil etish hamda boshqa kompaniyalar ustav kapitalida ulush olish huquqi berildi – bu an’anaviy bank qonunchiligidagi taqiqlardan tub burilishdir. Uchinchidan, murobaha, mudoraba, mushoraka, vakola, salam kabi shartnomalar qonuniy asosga ega bo‘ldi va islomiy moliya operatsiyalarining olti turi belgilab qo‘yildi. To‘rtinchidan, islomiy moliya operatsiyalari uchun maxsus soliq rejimi joriy etildi: ayrim operatsiyalar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilindi, shariatga muvofiq investitsiya depozitlaridan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod etildi, islomiy banklar va mikromoliya tashkilotlarining mijozlarga o‘tkaziladigan mol-mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq notarial harakatlari davlat bojidan ozod qilindi[8]. Beshinchidan, Markaziy bank huzurida islomiy moliya bo‘yicha maxsus kengash tashkil etilishi nazarda tutildi. Ushbu kengash shariat standartlariga muvofiqlikni nazorat qilish va sohani tartibga solishni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi – bu Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklaridagi markazlashgan shariat boshqaruvi modellariga hamohangdir.

Qonunchilik islohotlari bilan parallel ravishda institutsional-xalqaro integratsiya ham chuqurlashdi. 2025-yilda O‘zbekiston Islom moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB)ga a’zo bo‘ldi, Markaziy bank Islom moliyasi bo‘yicha xalqaro ta’lim markazi (INCEIF) bilan anglashuv memorandumini imzoladi hamda Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI)ga a’zolik uchun ariza topshirdi. 2026-yilning ikkinchi choragida Markaziy bank IFSB bilan hamkorlikda islom moliyasi sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqishni rejalashtirgan. Hukumat rejalariga ko‘ra, 2026-yil oxiriga qadar kamida bitta islomiy “darcha” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi, dastlabki bosqichda kamida uchta davlat bankida islomiy moliya xizmatlari joriy etiladi, 2030-yilgacha esa ikkita to‘laqonli mustaqil islomiy bank tashkil etilishi kutilmoqda[9].

Asosiy muammolar va huquqiy bo‘shliqlar

Erishilgan yutuqlarga qaramay, O‘zbekistonda islom moliyasining huquqiy tartibga solinishi hali ham bir qator jiddiy muammolar va bo‘shliqlarga ega bo‘lib, ularni quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

Birinchi muammo – kapital bozori instrumentlari, xususan, sukukning tartibga solinmaganligi. 2026-yilgi qonun asosan bank sektorini qamrab oladi, biroq islom moliyasining eng muhim investitsiya vositalaridan biri bo‘lgan sukuk (islomiy qimmatli qog‘ozlar) emissiyasi uchun to‘laqonli huquqiy baza haligacha yaratilmagan. Kapital bozori to‘g‘risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida BMTTD va Islom taraqqiyot banki ko‘magida sukukni joriy etish masalalari muhokama qilingan bo‘lsa-da, davlat va korporativ sukuk chiqarishning aniq mexanizmlari, ularning fuqarolik-huquqiy tabiati (aktivga bo‘lgan mulk huquqining sertifikat egalariga o‘tishi), maxsus loyiha kompaniyalari (SPV) maqomi va tegishli soliq oqibatlari qonunchilikda belgilanmagan. Sukuksiz esa yirik infratuzilma loyihalarini islomiy tamoyillar asosida moliyalashtirish va Fors ko‘rfazi institutsional investorlarini keng jalb etish imkoniyati cheklangan bo‘lib qolaveradi.

Ikkinchi muammo – takoful (islomiy sug‘urta) institutining huquqiy asossizligi. Islom moliya ekotizimi bank, kapital bozori va sug‘urta segmentlarining uzviy birligini taqozo etadi. Islomiy banklar o‘z aktivlarini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

shariatga muvofiq sug‘urtalash ehtiyojiga ega bo‘lgani holda, amaldagi sug‘urta qonunchiligi o‘zaro yordam va tavakkalchilikni taqsimlash tamoyillariga asoslangan takoful modelini nazarda tutmaydi. Bu esa islomiy bank operatsiyalarining shariatga to‘liq muvofiqligini ta’minlashda uzilish yuzaga keltiradi.

Uchinchi muammo shariat boshqaruvi (shariah governance) mexanizmlari va malakali kadrlar taqchilligi bilan bog‘liq. Markaziy bank huzuridagi islomiy moliya kengashining tashkil etilishi ijobiy qadam bo‘lsa-da, uning faoliyat tartibi, a’zolariga qo‘yiladigan malaka talablari, qarorlarining yuridik kuchi hamda banklar darajasidagi ichki shariat kengashlari bilan o‘zaro munosabati qonunosti hujjatlarida batafsil belgilanishi lozim. Bundan tashqari, mamlakatda ham islom huquqi (fiqh al-muamalat), ham zamonaviy moliya bo‘yicha bilimga ega mutaxassislar soni juda cheklangan. Diniy ta’lim muassasalarida islom moliyasi bo‘yicha maxsus yo‘nalishlar deyarli mavjud emas, iqtisodiy va yuridik oliy ta’lim muassasalarida esa ushbu fan endigina o‘qitila boshlanmoqda. Agar bir vaqtning o‘zida bir nechta bank islomiy “darcha” ochsa, har birida shariat kengashi tuzish uchun yetarli mutaxassis topilmasligi ehtimoli yuqori.

To‘rtinchi muammo – nizolarni hal etish va xalqaro xususiy huquq bilan bog‘liq masalalar. Islomiy moliya shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolarni ko‘rishda milliy sudlar shariat standartlarini qo‘llash tajribasiga ega emas. Xalqaro amaliyotda islomiy moliya bitimlariga ko‘pincha ingliz huquqi tanlanishi, ayrim hollarda esa shariat qoidalariga havola qilinishi bilan bog‘liq murakkab kolliziyaviy masalalar yuzaga keladi. O‘zbekiston yurisdiktsiyasida tuzilgan transchegaraviy islomiy moliya shartnomalarida qo‘llaniladigan huquqni tanlash, chet el arbitraj qarorlarini ijro etish hamda shariat kengashi xulosalarining sud jarayonidagi dalillik maqomi kabi masalalar alohida ilmiy va amaliy tahlilni talab qiladi.

Beshinchi muammo – standartlashtirish va soliq neytralligining to‘liq ta’minlanmaganligi. AAOIFI va IFSB standartlarining milliy huquq tizimiga qay darajada implementatsiya qilinishi, ularning majburiy yoki tavsiyaviy xususiyati hali aniq belgilanmagan. Soliq rejimidagi imtiyozlar muhim qadam bo‘lsa-da, murakkab tuzilmali bitimlarda (masalan, aktivning bank orqali ikki bosqichda o‘tishi bilan bog‘liq murobaha operatsiyalarida) soliq oqibatlarining an’anaviy kreditlash bilan to‘liq tenglashtirilishi amaliyotda sinovdan o‘tishi kerak. Shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligi pastligi va islomiy mahsulotlar mohiyatini tushuntirish borasidagi axborot bo‘shlig‘i iste’molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Taklif etiladigan yechimlar

Yuqorida ko‘rsatilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda huquqiy islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, kapital bozori qonunchiligini takomillashtirish doirasida sukuk emissiyasi va muomalasining maxsus huquqiy rejimini yaratish zarur. Bunda sukuk turlarini (ijara-sukuk, mushoraka-sukuk, murobaha-sukuk va boshqalar) belgilash, maxsus loyiha kompaniyalarining huquqiy maqomini aniqlashtirish, aktivlarni o‘tkazishda soliq neytralligini kafolatlash hamda davlat sukukini chiqarish orqali bozor uchun etalon (benchmark) shakllantirish lozim. Qozog‘istonning “Astana” xalqaro moliya markazi tajribasi ko‘rsatganidek, maxsus huquqiy rejim islomiy kapital bozori instrumentlarini jalb etishda

samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka takoful modelini joriy etishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish, jumladan, takoful operatorlarining tashkiliy-huquqiy shakllari, ishtirokchilar jamg‘armasining huquqiy tabiati va taqsimot mexanizmlarini belgilash zarur. Bu islom moliya ekotizimining yaxlitligini ta’minlaydi.

Uchinchidan, shariat boshqaruvining ko‘p darajali tizimini shakllantirish talab etiladi. Markaziy bank huzuridagi kengash faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti hujjatlarida a’zolarning malaka talablari, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish qoidalari va qarorlar qabul qilish tartibi aniq belgilanishi, banklar darajasida esa ichki shariat kengashlari va shariat auditi majburiyati joriy etilishi lozim. Kadrlar tayyorlash borasida diniy va dunyoviy ta’lim muassasalarida islom moliyasi bo‘yicha qo‘shma dasturlar ochish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish tartib-taomillarini soddalashtirish hamda AAOIFI sertifikatlash dasturlarini milliy malaka tizimiga integratsiya qilish maqsadga muvofiq[10].

To‘rtinchidan, nizolarni hal etish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Bunda islomiy moliya nizolari bo‘yicha sudyalar malakasini oshirish, muqobil tartibda – xalqaro tijorat arbitraji va mediatsiya orqali nizolarni hal etishni rag‘batlantirish, shuningdek, transchegaraviy bitimlarda qo‘llaniladigan huquqni tanlash masalalari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan, shariat standartlariga havolalarning shartnoma sharti sifatidagi maqomini e’tirof etish yondashuvi huquqiy aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, bosqichma-bosqich yondashuvni saqlagan holda, o‘rta istiqbolda islom moliyasiga oid normalarni yagona kodifikatsiyalashgan hujjatga – islom moliyasi to‘g‘risidagi maxsus qonunga jamlash masalasini ko‘rib chiqish mumkin. Bunday yondashuv Malayziyaning islomiy moliya xizmatlari to‘g‘risidagi qonuni tajribasiga hamohang bo‘lib, tartibga solishning tizimliligi va bashorat qilinuvchanligini oshiradi. Shu bilan birga, Markaziy bankning IFSB bilan hamkorlikda ishlab chiqilayotgan 2030-yilgacha mo‘ljallangan yo‘l xaritasida qonunosti hujjatlarini qabul qilish, nazorat salohiyatini oshirish va moliyaviy savodxonlikni yuksaltirish bo‘yicha aniq muddatli chora-tadbirlar o‘z aksini topishi lozim.

Xulosa

O‘zbekistonda islom moliyasining huquqiy tartibga solinishi so‘nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Markaziy bankning islomiy mikromoliyaviy xizmatlarga oid 2024-yilgi nizomi va, ayniqsa, 2026-yil 27-martda imzolangan islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qonun uzoq yillar davomida mavjud bo‘lgan tizimli huquqiy to‘siqlarni – banklarning savdo va sheriklik faoliyatidagi taqiqlarni hamda islomiy operatsiyalarning ikki karra soliqqa tortilishini bartaraf etdi. Litsenziyalash tizimi, maxsus soliq rejimi va Markaziy bank huzuridagi islomiy moliya kengashining tashkil etilishi sohaning institutsional poydevorini yaratdi.

Shu bilan birga, islohotlar hali yakunlanmagan. Sukuk va takoful institutlarining tartibga solinmaganligi, shariat boshqaruvi mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligi, malakali kadrlar taqchilligi hamda nizolarni hal etish va kolliziyaviy huquq bilan bog‘liq masalalar sohaning barqaror rivojlanishi yo‘lidagi asosiy to‘siqlar bo‘lib qolmoqda. Ushbu bo‘shliqlarni bartaraf etish –

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

kapital bozori va sug‘urta qonunchiligini islomiy instrumentlarga moslashtirish, shariat boshqaruvining ko‘p darajali tizimini joriy etish, kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish va o‘rta istiqbolda normalarni kodifikatsiya qilish – islom moliyasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi to‘laqonli tizimga aylanishining zaruriy shartidir. Ushbu vazifalar muvaffaqiyatli hal etilgan taqdirda, islom moliyasi mamlakatda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, ichki jamg‘armalarni iqtisodiyotga jalb etish va xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Siddiqi M. N. “Islamic Banking and Finance in Theory and Practice: A Survey of State of the Art.” Islamic Economic Studies, vol. 13, no. 2, 2006, betlar. 1–48.

2. United Nations Development Programme. “UNDP in cooperation with the Islamic Development Bank supports the Government of Uzbekistan in developing the enabling environment for Islamic Finance instruments.” UNDP Uzbekistan, 2024.

3. Tursunov I. “Islamic finance: Unlocking hidden capital for economic growth.” Kun.uz, 2025-yil 9-yanvar, https://kun.uz/en/news/2025/01/09/islamic-finance-unlocking-hidden-capital-for-economic-growth.

4. “Uzbekistan prepares legal foundation for Islamic finance system.” Kun.uz, 2025-yil 11-noyabr, https://kun.uz/en/news/2025/11/11/uzbekistan-prepares-legal-foundation-for-islamic-finance-system.

5. Nazarov N. “Islamic Financing in Uzbekistan: Current Trends, Challenges and Prospects.” Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, vol. 1, no. 3, 2025, betlar. 195–199.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqidagi 2024-yil 27-iyuldagi 3536-son qarori.

7. “Prezident islomiy banklar to‘g‘risidagi qonunni imzoladi.” Kun.uz, 2026-yil 28-mart, https://kun.uz/news/2026/03/28/prezident-islomiy-banklar-to grisidagi-qonunni-imzoladi.

8. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2026-yil 27-mart.

9. “Uzbekistan to Adopt Islamic Banking Law Soon.” UzDaily.uz, 2026-yil 14-yanvar, https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-to-adopt-islamic-banking-law-soon/.

10. Chapra M. U. “The Islamic Vision of Development in the Light of Maqasid al-Shari‘ah.” International Institute of Islamic Thought, 2008.